

MARKAZIY FARG‘ONANING TURLI DARAJADA SHO‘RLANGAN TUPROQLARINING FIZIK XOSSALARI

Nosirov Yosin Soyibjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, magistrant

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda Markaziy Farg‘onaning tuproqlari turli darajada sho‘rlangan. Ushbu sho‘rlangan tuproqlar o‘ziga xos fizik xossalarga ega. Bunda tuproqlarning mexanik va agregat tarkibi, hajm massasi, solishtirma massasi, g‘ovovakligi, gigroskopikligi, kapilyar namlik va boshqa xususiyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Sho‘r tuproqlar, mexanik va agregat tarkib, hajm massa, solishtirma massa, g‘ovaklik, gigroskopiklik, kapilyar namlik.

Markaziy Farg‘onada sho‘r tuproqlar asosan bo‘z tuproqlar kamari va cho‘l mintaqalarda tarqalgan bo‘lib murakkab mexanik tarkibga ega bo‘z tuproqlar mintaqasidagi tuproq tog‘ oldi tekisliklarida daryolarning yuqori terrasalarida lyoss va lyossimon jinslar ustida shakllangan shu bois ular sho‘rlanmagan lekin kuchsiz sho‘rlangan guruhlari ham xususiy hollarda uchraydi. Kamdan-kam hollardagina kuchli sho‘rlangan bo‘ladi.

Bo‘z tuproqlar mintaqasidagi lyosslar uchun xarakterli xususiyat, ularda yirik changlar (0,05-0,01mm) miqdorining 45-65 % bo‘lishi, qunning bo‘lmasligi yoki juda kam bo‘lishi, hamda 5-12 % miqdorda il zarrachalarining mavjudligi hisoblanadi.

Lyoss yotqiziqlari bir tekisda katta katta maydonlarda tarqalgan bo‘ladi, lekin hayotda tog‘lik va adirliklarni kesib o‘tuvchi soylar ularni qirqib o‘tgan. Bu soylar o‘zlarining yo‘llarida, ya‘ni konus yoyilmalarida prolyuvial va prolyuvial-allyuvial yotqiziqlarni hosil qiladilar. Konus yoyilmalariga xos xususiyat esa tog‘ jinslarning tabaqalanishidir. Bu tabaqalanish uzunasiga va yon tomonga qarab sodir bo‘ladi, ko‘pincha yon va uzoq tomonlar, oxirgi maydonlar sho‘rlanadi. Bunga So‘x, Shohimardonsoy, Isfayramsoy konus yoyilmalarini keltirish mumkin.

Ko‘llar va dengizlar sohillarida, daryolarning eski, ya‘ni qoldiq o‘zanlarida umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, minerallashgan va harakatsiz yoki kuchsiz harakatlanuvchi sizot suvlari ustida arid iqlimli o‘lkalarda shug‘ullangan tuproqlar shakllanadi va ularning fizik suv xususiyatlari sho‘r emas tuproqqa nisbatan o‘zgacha bo‘ladi.

Ma‘lumki, sho‘r tuproqlarning fizik xususiyatlari sho‘r bo‘lmagan tuproqlardan farq qiladi.

Tuproqlarning shoʻrlanish jarayonlari, shoʻrlik darajasi, ularning agregat holati, suv xossalari, kapillyarligi va boshqalarga bogʻliq boʻladi.

Markaziy Osiyoning tekislik qismlaridagi tuproqlar kam gumusli ekanliklari tufayli ularning struktura holatini nisbatan yomon. Bu struktura boʻlakchalarining suvga chidamliligi ham past. Tuproqlarning strukturaliligi boʻz tuproqlardan choʻl mintaqasidagi tuproqlar tomon yomonlashib boradi.

Har ikkala mintaqadagi gidromorf tuproqlarning struktura holati avtomorf tuproqlarga nisbatan yaxshiroq. Sugʻoriladigan maydonlarda suvga chidamli struktura boʻlakchalarining miqdori keskin kamayadi. Tuproq struktura holatiga oʻsimlik turlari ham taʼsir qiladi.

Beda ekilishi hamma tuproqlarning ham struktura holatini yaxshilab, agregatlarni suvga chidamliligini oshiradi.

Jadvaldan maʼlum boʻlishicha, tipik boʻz tuproqlarda oʻlchami 0.25 mm dan katta boʻlgan struktura boʻlakchalari 23 %ni tashkil qiladi. Shu tuproqlarning sugʻoriladigan guruhlarida esa agregatlar miqdori 15 %. Shunga oʻxshash jarayonlarni boshqa tuproqlar misolida ham koʻrish mumkin.

| Tuproqlar | Qoʻriq | Sugʻoriladigan |
|-----------------------------------|--------|----------------|
| Tipik boʻz tuproqlar | 23 | 15 |
| Och tusli boʻz tuproqlar | 15 | 9 |
| Oʻtloqi (boʻz tuproq mintaqasida) | 40 | 14 |
| Taqirsimon tuproq | 16 | 4 |
| Taqir | 14 | 4 |
| Oʻtloqi saz | 33 | 12 |

Agregat oʻlchami qancha kichik boʻlsa va miqdori kam boʻlsa tuproqlarning shoʻrlanishga moyilligi shuncha yuqori boʻladi. Shu nuqtai nazardan taqir va taqirsimon shoʻrlanishga moyilligi boʻz va oʻtloqi tuproqlardan yuqori.

Tuproqlarning shoʻrlanishida ularning solishtirma va hajm masalari, gʻovakligi ham alohida oʻrin egallaydi. Koʻpchilik tuproqlarning solishtirma massasi 2,6-2,74 g/sm³ atrofida joylashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Azimboev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. T. «Iqtisod-moliya», 2006.
2. afurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu. - "Eroziyaga uchragan neogen yotqiziklarda shakllangan bo'z tuproqlarning biologik faolligi". "o'zbekiston" - T.: 1998.
3. Qo'ziev R. "o'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to'plam. Samarqand-2002 y.
4. www.Agrochim.bis.2004.
5. www.Herba.msu.Ru.2004.
6. www.Peola.ru.glosari.2004